

Izoh:

1. 1 (bir) kredit 30 (o'ttiz) akademik soatni tashkil qiladi.
2. Oliy ta'lim muassasasi ixtisoslik fanlarining dasturlarini ishlab chiqishda yetakchi oliy ta'lim muassasasi hamda kadrlar buyurtmachilarining talablarini e'tiborga oladi.
3. 3-8 semestrlardagi mutaxassislik fanlarining sillabuslarida mustaqil ta'lim mazmuni joriy semestrda amaliyot dasturi mazmuniga mos kelishi va bir-birini to'ldirishi, talabning amaliyoti mustaqil ta'lim topshirig'ini bajarish uchun asos sifatida xizmat qilishi nazarda tutilishi kerak.
4. Yakuniy davlat attestatsiyasi muddatlari tarkibiga bitiruv malakaviy ishini himoya qilish ham kiradi.
5. O'quv rejaga kiritiladigan ixtisoslikka oid fanlarning amaliy mashg'ulotlari va laboratoriya ishlari oliy ta'lim muassasasi hamda bazaviy tashkilotlarda o'tkaziladi.
6. Nazariya va amaliyot yaxlitligini ta'minlash uchun talabalarining malakaviy amaliyotlari ta'lim muassasalarida, bazaviy tashkilotlarda o'tkaziladi.
7. 3-8 semestrlarda 4+2 tartibda amalga oshiriladi. Bunda haftaning 4 kuni nazariy va amaliy ta'lim, 2 kunda pedagogika amaliyoti o'tkaziladi.
8. 1-3 kurs talabalarining yozgi ta'til davrida avvalgi semestrlarda o'zlashtirilmagan fanlari uchun yozgi semestr tashkil qilinishi mumkin. Bunda yozgi ta'tilning birinchi haftasi ro'yxatga olish haftaligi, keyingi to'rt hafta yozgi semestr hisobidan akademik davr hisoblanadi.

O'quv jarayonining tarkibiy qismlari	Haftalar soni	Semestr	Davlat attestatsiyasi
Nazariy va amaliy ta'lim	30	1-2	
Malakaviy amaliyot	8	4,6,8	
Attestatsiyalar	27	1-8	
4 kun nazariy va amaliy ta'lim / 2 kun amaliyot	90	3-8	Bitiruv malakaviy ishini himoya qilish yoki ta'lim yo'nalishi bo'yicha fanlararo (umumkasbiy va ixtisoslik) yakuniy davlat attestatsiyasi
Ta'tillar	41	1-8	
Kredit ta'lim tizimiga kirish	8	1,3,5,7	
Jami	204		

O'quv ishlari bo'yicha prorektor.v.b

O'quv-uslubiy boshqarmasi boshlig'i

Kafedra mudiri

Kadrlar buyurtmachisi:

Navoiy viloyati xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i

I.Nasridinov

H.Shodiyev

K.Xamroyev

M.Shamuratov

Navoiy davlat pedagogika instituti Kengashining
2022-yil 29 - 08 - kuni daqi 01 - sonli
yig'ilishining qarori asosida

